**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,**
**FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**

_______________

**Samarqand iqtisodiyot va**
**servis instituti rektori**
**M.E. Po‘latov**

2024 yil “______”___________

**Ro‘yxatga olindi:** FD-20-09

2024 yil “______”___________

# MASHINA VA USKUNALARNI BAHOLASH

## O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq

**Ta’lim sohasi:** 410 000 – Biznes va boshqaruv

**Ta’lim yo‘nalish:** 60412700 – Baholash ishi

**Samarqand – 2024**

Scanned with CamScanner

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>APPMEQ106</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>6</td><td>Kreditlar<br>6</td></tr>
<tr><td colspan="2">FAN/MODUL TURI<br>majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>o‘zbek</td><td>Haftadagi dars soatlari<br>6</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td>Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td>MASHINA VA USKUNALARNI BAHOLASH</td><td>90</td><td>90</td><td>180</td></tr>
</table>

2.

**I. Fanining mazmuni**

“Mashina va uskunalarni baholash” fanining asosiy maqsadi – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat mashina va uskunalar bozoridagi professional faoliyat hamda bahoni shakllantirishning nazariy va amaliy masalalari to‘g‘risida talab qilinadigan bilimlarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – uni o‘rganuvchilarga:

- mamlakatimizda birlamchi va ikkilamchi mashina va uskunalar bozorlari holati, istiqbollari, unda amalga oshiriladigan professional faoliyat turlari, jumladan baholash faoliyati haqidagi zarur zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish;
- baholash faoliyati, baholovchi tashkilotlarning ishlash prinsiplarini chuqur anglatish;
- mashina va uskunalar qiymatini baholashni takomillashtirish;
- mashina va uskunalarni bahosini shakllantirish bo‘yicha iqtisodiy qonunlarning amal qilish xususiyatlarini o‘rgatish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida turli harakatlanuvchi, mashina va uskunalar bahosini shakllantirish bo‘yicha nazariy-amaliy bilimlarini uzviylik va uzluksizlikda o‘rgatishdan iborat.

3.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Mulk va baholash haqida umumiy tushunchalar.**

Mulk tushunchasi. Mulk turlari. Mulkni baholash asoslari. Baholash ob’ekti sifatida korxona, firmaning o‘ziga xos xususiyatlari.

**2-mavzu. Qiymat turlari, mulkni baholash maqsadlari va tamoyillari**

Baholash ob’ekti sifatida mulkiy majmua tushunchasi. Mulk qiymatini baholashning asosiy tushunchalari, maqsadlari va vazifalari. Mulk qiymatining turlari. Mulk qiymatiga ta’sir qiladigan omillar.

**3-mavzu. Mulkni baholash jarayonining bosqichlari**

Baholash topshirig‘ini shakllantirish. Ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish. Baholash uslubiyati. Baholash to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish.

**4-mavzu. Mashina va uskunalar bozori va uning o‘ziga xos xususiyatlari**

Mashina va uskunalar bozorining o‘ziga xos xususiyatlari. Mashina va uskunalar bozorining segmentlanishi. Mashina va uskunalar bozori tahlilining usullari va jarayonlari. Mashina va uskunalar bozorini tartibga solish. Narxni shakllantirishda tashqi omillarning ta’siri.

**5-mavzu. Mashina va uskunalar qiymatini baholash faoliyatini tartibga solishda davlatning roli**

“Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun. Mashina va uskunalar qiymatini baholash andozalarining yangi tizimini yaratish uchun asosiy shart-sharoitlar va talablar. Mashina va uskunalar qiymatini baholash sohasidagi qonuniy asoslar. Mashina va uskunalar qiymatini baholashning me’yoriy-texnik asoslari. Mashina va usknalar qiymatini baholashning milliy andozalari.

**6-mavzu. Mashina va uskunalar qiymatini baholash jarayoni**

Baholash ob’ekti sifatida ko‘chmas mulkning o‘ziga xos xususiyatlari. Baholanuvchi qiymat turlari. Baholash topshirig‘ini shakllantirish. Baholash ob’ektini identifikatsiyalash. Ma’lumotlarni to‘plash va birlamchi tahlil qilish. Mashina va uskunalar qiymatini baholash yondashuvlari va usullarini tanlash hamda qo‘llash. Baholash natijalarini muvofiqlashtirish. Baholash haqidagi hisobotning tarkibi va tuzilishi.

**7-mavzu. Mashina va uskunalar qiymatini xarajatli yondashuvda baholash**

Mashina va uskunalar xarajatli yondashuv bilan baholash jarayoni. Almashtirish usuli. Turdosh obyekt narxi bo‘yicha hisoblash usuli. Elementma-element hisoblash usuli. Qiymatni indeksatsiya qilish usuli.

Scanned with CamScanner

**8-mavzu. Mashina va uskunalar qiymatini qiyosiy yondashuvda baholash**

Qiyosiy yondashuv usullarining asosiy iqtisodiy mohiyati. Sotuvlarni to'g'ridan to'g'ri qiyoslash usuli. Statistik tahlil usullari. Tarkibiy qismlari qiymati asosida modellashtirish.

**9-mavzu. Mashina va uskunalar qiymatini daromad yondashuvda baholash**

Daromad yondashuv usullarining asosiy iqtisodiy mohiyati. foydani to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli. Qoldiq usuli;

**10-mavzu. Mashina va uskunalar qiymatini baholash yondashuvlari natijalarini muvofiqlashtirish**

Baholash natijalarini muvofiqlashtirishning umumiy qoidalari. Mantikiy muvofiqlashtirish usuli. Matematik o'lchash usuli. Baholash yondashuvi hisoblanayotgan qiymat turiga muvofiqligi

**11-mavzu. Baholovchilar ishining sifatini nazorat qilish**

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Baholovchilar va rieltorlarning malaka imtihonini o'tkazish va ularga malaka sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida" qarori

**12-mavzu. Mashina va uskunalar qiymatini baholashning xorijiy tajribasi**

Xalqaro baholash standartlari (IVS). Amerika baholash standartlari (USPAP). Yevropa baholash standartlari (TEGoVA). Britaniya baholash standartlari (RICS).

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mulk va baholash haqida umumiy tushunchalar
2. Qiymat turlari, mulkni baholash maqsadlari va tamoyillari
3. Mulkni baholash jarayonining bosqichlari
4. Mashina va uskunalar bozori va uning o'ziga xos xususiyatlari
5. Mashina va uskunalar qiymatini baholash faoliyatini tartibga solishda davlatning roli
6. Mashina va uskunalar qiymatini baholash jarayoni
7. Mashina va uskunalar qiymatini xarajatli yondashuvda baholash
8. Mashina va uskunalar qiymatini qiyosiy yondashuvda baholash
9. Mashina va uskunalar qiymatini daromad yondashuvda baholash
10. Mashina va uskunalar qiymatini baholash yondashuvlari natijalarini muvofiqlashtirish
11. Baholovchilar ishining sifatini nazorat qilish
12. Mashina va uskunalar qiymatini baholashning xorijiy tajribasi

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaktiv usullar yordamida, mavzularga mos pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, keyslar, masalalar ishlanadi.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Baho, narx va qiymat tushunchalari
2. Mulkni baholashning tamoyillari
3. Mulkni baholashga yondashuvning uch turi
4. Moddiy ob'ektlarni ko'chmas mulklar tarkibiga kiritilishi.
5. Ko'char mulk ob'ektlari xususiyatlari va alomatlari.
6. Ko'char mulk ob'ektlarining tasniflanish tizimi
7. Mashina va uskunalar mulk bozori
8. Mashina va uskunalar qiymatini baholash sohasidagi qonuniy asoslar
9. Mashina va uskunalar qiymatini baholashning me'yoriy - texnik asoslari
10. Mashina va uskunalar qiymatini baholashning milliy andozalari
11. Baholash tamoyillari
12. Mashina va uskunalarning texnik holatini baholashga yondashish
13. Mashina va uskunalarni iqtisodiy baholash
14. Mashina va uskunalarni huquqiy baholash va o'tkazish tartibi
15. Mashina va uskunalardan foydalanishning huquqiy xususiyatlari
16. Mashina va uskunalar qiymatini eng yaxshi va samarali foydalanish tahlili
17. Mashina va uskunalar qiymatini baholash usullari
18. Mashina va uskunalarni hujjatlashtirish.
19. Mashina va uskunalarni texnik holatini baholash.
20. Mashina va uskunalarni ta'mirlashga qilinadigan harajatlarning maqsadga muvofiqligini aniqlash.
21. Mashina va uskunalar bozori tahlilining usullari va jarayonlari.
22. Kelishuvlarni qiyoslash usuli.
23. Daromadlarni qiyoslash usuli.
24. Pullarning vaqt mobaynida noteng qiymati.
25. Mashina va uskunalar qiymatini baholashning daromadli usuli.
26. Turdosh obyekt narxi bo'yicha hisoblash usuli.

Scanned with CamScanner

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Fan bo‘yicha kurs ishi (loyihasi) o‘quv rejada belgilanmagan.

4.

**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

“Mashina va uskunalarni baholash” fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:

- O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida mulkiy munosabatlarning tarkibi;
- mamlakatda mulkiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha mavjud qonunlar va qonuniyatlar;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida mashina va uskunalar qiymatini baholashning maqsadi va tamoyillari;
- mashina va uskunalarni baholashga oid iqtisodiy kategoriyalarning mohiyati;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotida mulkni baholash bo‘yicha mavjud muammolar va ularni echimini topish *haqida tasavvurga ega bo‘lishi;*
- mashina va uskunalarni bahosini shakllantirish bo‘yicha iqtisodiy qonunlarning amal qilish xususiyatlarini;
- mashina va uskunalarni turli maqsadlarda baholashning tartib-qoidalarini;
- mashina va uskunalarni baholashning bosqichlari hamda baholash jarayonlarini;
- mashina va uskunalarni baholash yondoshuvlari va usullarini;
- baholovchilarning faoliyati sifatini aniqlashdagi ichki nazorat tartib qoidalariga qo‘yiladigan talablarni *bilishi va ulardan foydalana olishi;*
- mamlakat mashina va uskunalar bozorining tarkibi va uning rivojlanib borish qonuniyatlari;
- ob’ektlarga oid iqtisodiy, statistik va hisobot ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish;
- majmuada bozor muammolari bo‘yicha asosiy iqtisodiy talablarni shakllantira olish bo‘yicha *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*

5.

**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari**

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- seminar va treninglar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- loyiha ishi bajarish;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar va loyihalar tahlili;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- misol va masalalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

6.

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish.

7.

**Asosiy adabiyotlar**

1. Ганиев К.Б, Ганиева Ф.К, Ганиева Г.И, И.А.Усманов. «Экономик предприятия, рыночная стоимость машин и оборудования». 2006 йил
2. СамМБШ «Методические рекомендации по оценке стоимости автотранспортных средств и строительных машин». Ташкент – 2010.
3. Международная академия оценки и консалтинга «Оценка рыночн стоимости машин и оборудования» Москва – 2001.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 811-I-son 19.08.1999 y.
5. Оценка недвижимости: учебное пособие / Т.Г.Касяненко, Г.А. Махавикова, В.Е. Есипов, С.К. Мирзажанов .- М.: КНОРУС, 2010.- 752 с.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Yagona milliy baholash standarti (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 28-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3487):
2. “Baholash faoliyatining tushunchalari, ta’riflari va prinsiplari” (1-son MBS);
3. Марченко А.В. Экономика и управление нежвижимостю: учеб. Пособие. – Ростов н/Д: Феникс, 2006. -352 с.
4. Асаул А.Н. Экономика недвижимости: учебник для вузов, 2-ое изд./- СПб.: Питер, 2008. -621 с.
5. Оценка недвижимости: учебное пособие / Т.Г. Касяненко, Г.А. Махавикова, В.Е. Эсипов, С.К. Мирзажанов .- М.: КНОРУС, 2010.- 752 с.

**Internet saytlari:**

1. www.gov.uz
2. www.press-service.uz
3. www.gkas.uz
4. www.stat.uz
5. www.soliq.uz
6. www.stroyinfo.uz

Scanned with CamScanner

| | |
|---|---|
| | 7. www.mfer.uz<br>8. www.uza.uz<br>9. www.review.uz<br>10. www.cer.uz |
| **8.** | Faning dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv-uslubiy Kengashining 2024-yil "___" avgustdagi 1-son bayonni bilan tasdiqlangan (№__________). |
| **9.** | **Fan/ modul uchun mas'ul:**<br>**M.A.Rayimov** – SamISI, "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi o'qituvchisi |
| **10.** | **Taqrizchilar:**<br>**A.N.Djabriyev**– TAQU, "Iqtisodiyot va mulkni boshqarish" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori<br>**K.B. Ganiyev**– SamDAQU, "Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi professori, texnika fanlari doktori |

Scanned with CamScanner